

## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

### 2018 yil yanvar-mart oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


#### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1006,8 mlrd.so'mni**, o'sish **5,6 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **2,5 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **52,0 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **57,9 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 1006,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 4,7 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 4,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 11,9 % ga o'sishi hisoblanadi.

### 2018 yil yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-mart oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 934,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,8 % ni tashkil etdi.

***Yanvar-martl oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

	2017 yil	2018 yil	2017 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	4,5	4,8	106,5
Paxta linti, ming tonna	1,5	1,6	105,9
Aroq – ming litr 100 % spirt	360,0	320,1	88,9
Vino, ming litr	304,0	380,9	125,3
Un, ming tonna	29,0	28,8	97,2



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,1 % ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ni) tashkil etdi.



***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 523,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 2,5 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 52,0 % ni tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



2017 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 49,9 % dan 2018 yilning yanvar-mart oyida 50,0 % bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga ortgani kuzatilmoqda.


**Yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**



### *Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.*

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 42,6 % ulushini), Uychi tumani (8,4 %), Namangan (9,0 %), Uchqo'rg'on (8,5 %), To'raqo'rg'on (7,4 %), Pop (6,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


### *2018 yilning yanvar-mart oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da*



Shu bilan birga eng kam ulush Chortoq (1,6 %), Kosonsoy (2,2 %), Yangiqo'rg'on (2,6 %), Chust (3,5 %) va Norin (3,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Pop (2017 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 130,1 % ga), Chust (112,7 % ga), va Mingbuloq (141,9 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

**2018 yilning yanvar-mart oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.***

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 % ga ortdi va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 57,9 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo`rg`on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (98,8 %), Kosonsoy (93,4 %) va Namangan (75,2 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (12,2 %), Pop (23,7 %) va Uchqo`rg`on (22,2 %) tumanlarida kuzatildi.

***2018 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da***




***Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.***

Bugungi kunda viloyatda 4 mingga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1955 tasi Namangan shahrida, 276 tasi Chust, 262 tasi Namangan, 253 tasi Uychi, 217 tasi To'raqo'rg'on, 206 tasi Kosonsoy, 151 tasi Chortoq, 129 tasi Pop, 130 tasi Yangiqo'rg'on, 135 tasi Uchqo'rg'on, 113 tasi Norin va 78 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

*2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni*

### Faoliyat yuritayotganlar



Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 270 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ulardan 69,3 % Namangan shahri, Namangan, To'raqo'rg'on, Uychi va Kosonsoy tumanlarlariga to'g'ri keladi.

**Namangan viloyat statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80